

DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISHNING HORIJ TAJRIBASI

Karlibayeva Gulshat Xojabayevna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi dotsenti

karlibaeva.gulya@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada davlat xaridlarini amalga oshirishning xorijiy tajribasi tahlil qilinadi. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar misolida tender tizimlari, shaffoflik mexanizmlari, raqobat muhiti va korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar o'rganiladi. Shuningdek, samarali davlat xaridlarini tashkil etish bo'yicha xalqaro tavsiyalar va O'zbekiston uchun foydali bo'lishi mumkin bo'lgan amaliyotlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: davlat xaridlari, tender, shaffoflik, korrupsiyaga qarshi kurash, xorij tajribasi, raqobat, davlat boshqaruvi, samaradorlik.

I. KIRISH

Bugungi kunda davlat xaridlarini amalga oshirish va boshqarish tizimini takomillashtirish, rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish, ushbu jarayonlarda kichik va o'rta biznes sub'ektlarining ishtirokini ta'minlash, iqtisodiy islohotlarni modernizasiya qilish bosqichida o'z echimini kutayotgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda iqtisodiyotni barqaror sur'atlarda rivojlanishini ta'minlashi lozim, davlat xaridlari jumladan, raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida davlat xaridlari mexanizmini takomillashtirishga katta e'tiborni qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Bu borada, davlat xaridlarini samarali tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan qator muammolar va munozalari jihatlar mavjud. Bizning fikrimizcha, ushbu muammolar sirasiga quyidagilarni kiritish o'rnlidir:

- davlat xaridi mexanizmini takomillashtirishda me'yoriy-huquqiy normalardagi mavjud kamchiliklar. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to'g'risida”gi qonunida raqobat usulida xarid qilingan bitimlarning shaffofligini ta'minlashga etarli e'tibor qaratilmagan;

- davlat xaridini boshqarishning elektron tizimini shakllantirishda zamoanviy raqamli texnologiyalarni qo'llashga bo'lgan ehtiyojning yuqori ekanligi;

- qurilish sohasida amalga oshirilayotgan davlat xaridlarida raqobat usulidan foydalanishning nisbatan cheklanganligi. Bunda, kichik va o'rta biznes sub'ektlarini davlat xaridi tizimidagi ishtirokini kengaytirish maqsadga muvofiqdir;

- davlat xaridini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvining odini olish chorralari etarli emas. Jumladan, manfaatlar to'qnashuvi holatlari qayd etilganda elektron savdolarning avtomatik to'xtatilishini nazarda tutuvchi yagona markazlashgan va Davlat xizmatlari markazining mavjud ma'lumotlar bazasi bilan integrasiyalashmagan ekanligi;

- davlat xaridlari buyurtmachilarining iqtisod qilingan mablag'laridan samarali foydalanish, byudjet va korporativ (strategik va yirik davlat korxonalar) buyurtmachilarning raqobat usuli orqali iqtisod qilingan moliyaviy manfaatlardorligi mexanizmining mavjud emasligi va x.k.

Davlat xaridlarini amalga oshirish va mexanizmini takomillashtirishda, eng

avvalo, kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi, chunki xorijiy davlatlar amaliyotiga nazar solsak, davlat xaridlari innovation mahsulotlarga bo‘lgan talabni rag‘batlantirishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Innovation mahsulotlar bo‘yicha davlat shartnomalarida ishtirok etish to‘g‘risidagi qonunchilikda turli limitlar o‘rnatilganiga qaramay, ularni amalga oshirishda muammolar mavjud va shuning uchun xorijiy davlatlarda davlat xaridlarining o‘ziga xoc xususiyatlari va imkoniyatlarini o‘rganish kerakligini ko‘rsatadi.

II. ASOSIY QISM

Dunyoning barcha mamlakatlarida davlat xaridlari davlat boshqaruvi tizimining, fuqarolarning turmush darajasini oshirish maqsadida davlat dasturlari va loyihalari uchun zarur bo‘lgan tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotib olishga byudjet mablag‘larini (davlat xarajatlarini) sarflash tizimining, jamiyat va iqtisodiyot faoliyati (iqtisodiy o‘sish sur’atlarini qo‘llab-quvvatlash, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish, bandlikni rag‘batlantirish va biznesning innovation faolligi) muammolarini hal qilishning, milliy strategiyalarga muvofiq resurslarni tejash va ekologik tozalikni ta’minlashning, shuningdek, tegishli davlat dasturlari va loyihalalarini amalga oshirish orqali fuqarolarga sifatli va o‘z vaqtida xizmatlar ko‘rsatishning muhim elementi hisoblanadi.

(iqtisodiy o‘sish sur’atlarini qo‘llab-quvvatlash, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish, bandlikni rag‘batlantirish va biznesning innovation faolligi) muammolarini hal qilishning, milliy strategiyalarga muvofiq resurslarni tejash va ekologik tozalikni ta’minlashning, shuningdek, tegishli davlat dasturlari va loyihalalarini amalga oshirish orqali fuqarolarga sifatli va o‘z vaqtida xizmatlar ko‘rsatishning muhim elementi hisoblanadi.

Davlat xaridlaridan olinadigan iqtisodiy naf, byudjet resurslari cheklangan bo‘lsa ham, mamlakat iqtisodiyotiga va jamiyat hayotiga ta’siri bo‘lishi kerak, shuningdek, xaridlardan iqtisodiy samara ko‘rish kerak.

Bir qator olimlarning fikricha, davlat xaridlarining asosiy maqsadlaridan biri shundaki, u davlat manfaatlarini himoya qilishi, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga va aholining hukumatga ishonchini oshirishga yordam berishi, shuningdek, biznesni rivojlantirish va ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va savdo sohasida (mamlakatlar ichida va o‘rtasida) raqobatbardoshligini oshirishdan iborat shu bilan birga byudjet mablag‘larini sarflash sifati hamda hokimiyat va davlat tashkilotlari faoliyatining moliyaviy shaffofligini ta’minlash zarur.

Jahonda davlat xaridlari ulushining o‘zgarish dinamikasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, mamlakatlar rivojlangan yoki rivojlanayotgan mamlakatlarga mansubligi xaridlar ulushi miqdoriga bog‘liq emas.

Ob’ektiv tarzda barqaror rivojlanishning strategik maqsadlari xaridlar tizimidagi o‘zgarishlar vektorini va ularning davlat xarajatlari tarkibida, shuningdek, yalpi ichki mahsulot tarkibida ulushini belgilaydi (1-jadval).

1-Jadval

**2021 yilda iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti mamlakatlarida davlat
xaridlarining sohalar bo‘yicha ulushi²⁹**

Mamlakatlar	sog‘liqni saqlash	ijtimoiy himoya	iqtisodiyot yo‘nalishi	ta’lim	jamoat tartib va xavfsizlik, himoya, atrof muhitni himoyalash, davlat xizmatlari	uy-joy va kommunal xizmat	madaniy xordiq, diniy soha
Avstriya	40,7	10	20,7	8,1	16,6	0,6	3,4
AQH	47,6	10,5	12,8	6,5	18,9	1,1	2,6
Belgiya	39,5	10,4	12,2	17	16,1	3,6	1,2
Bolgariya	36,7	4,1	22,3	9	20,2	3	4,6
Buyuk Britaniya	36,5	14,8	9	10,9	23,4	0,6	4,7
Vengriya	27,5	4,7	18,9	14,3	25,7	2,6	6,3
Germaniya	24,7	18,2	12,2	11,3	28,6	1,4	3,6
Gretsiya	41,9	12,3	12,5	5,9	19,8	3,4	4,1
Daniya	42,9	17,1	9,1	6,5	20,1	1	3,2
Izrail	38,4	4,6	15,1	7,1	29,8	1,7	3,3
Irlandiya	20,5	3,4	29,7	10,5	25,5	2,3	8,2
Islandiya	27	7,8	18,8	18	17,1	2,2	9
Ispaniya	39,1	18,6	13,4	8,5	11,7	5,1	3,5
Italiya	28,3	11	11,1	13,7	29,7	2	4,2
Koreya	43,7	5,2	13,4	4,3	26,9	2,6	3,9
Kosta-Rika	45,1	13,2	15,2	6,5	16,7	1,8	1,4
Latviya	32,2	6,6	15,3	12,9	23,9	6,3	2,8
Litva	26,1	4,3	20,7	13,3	25,9	5,2	4,5
Luksemburg	32,1	5,9	18,3	11,5	22,4	4,3	5,6
Niderlandiya	23,6	17,9	21,4	7,8	22,1	2,2	5
Norvegiya	35,3	23,7	11,3	8,3	16,6	1,4	3,2
OESR	27,4	8,9	21,9	9,4	24,2	3,7	4,6
OESR-YES	32,1	3,7	26,7	10	18,3	3,6	5,6
Polsha	37	4	20,2	8,3	21,7	4	4,8
Portugaliya	39,6	2,1	23,2	7,1	21,9	2,7	3,4
Ruminiya	33,7	4,7	23,3	10,4	19,6	3,5	5
Slovak Respublikasi	33,7	9	16,1	10,9	22,4	2,8	5,1
Sloveniya	23,7	13,2	13,5	15,3	28	2,7	3,6
Finlyandiya	6,7	19,7	14,8	18,2	36,3	1,5	2,8
Fransiya	37,9	13,8	11,8	9,2	22,6	2,6	2,2
Xorvatiya	16,3	4,1	21,9	16,4	37,3	2,4	1,6
Chex Respublikasi	31,9	9,8	16,4	10,7	26	2,4	2,7
Shveysariya	39	12,5	13,7	7,6	21,1	2,2	3,9

²⁹ OECD. Government at a Glance, 2021. DOI: 10.1787/1c258f55-en. ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari


Shvetsiya	37,4	2,6	13,8	10,8	24,2	8,4	2,8
Estoniya	33,5	3,7	23,5	9,8	20,3	4,5	4,7
Yaponiya	27,5	3,4	29,5	6,1	21,3	8,3	4
O'rtachasi	33,0%	9,4%	17,3%	10,3%	40,3%	3,0%	4,0%

Davlat xaridlari sog'liqni saqlashdan tortib atrof-muhitni muhofaza qilish, jamoat tartibi va iqtisodiyot (jumladan, infratuzilma, transport, aloqa, energetika va ilmiy-tadqiqot ishlari)gacha bo'lgan barcha xarajatlar funksiyalarida qo'llaniladi. O'tgan yillardagidek, davlat xaridlariiga sarflangan xarajatlarning eng katta ulushi 2021 yilda IHTT mamlakatlari bo'yicha o'rtacha 31,9 foizni tashkil etdi, bu 2019 yilda 29,3 foiz bo'lgan. Undan keyingi o'rnlarni iqtisodiyot (16,4%) va ta'lim (10,7%) egallagan, mudofaa (9,9%) va ijtimoiy himoya (9,8%), mamlakatlar o'rtasida nisbatan kam farq bor. Sog'liqni saqlash - bu COVID-19 pandemiyasi davrida tibbiy buyumlarni intensiv xarid qilish hisobiga xarajatlar ko'paygan yagona toifadir. Belgiya, Yaponiya va Italiya sog'liqni saqlash sohasiga davlat xaridlari xarajatlarining 43% dan ortig'ini sarflagan.

Bu mamlakatlardan farqli ravishda, Vengriya va AQShda davlat xarajatlarining eng katta ulushini iqtisodiy masalalar tashkil etgan va Shveytsariyada umumiy davlat xizmatlari va ijtimoiy himoya eng katta ulushga ega bo'lgan.

Jadvaldan shuni bilish mumkin, mamlakatlar u yoki bu sohasidagi davlat xaridlari bu mamlakatning o'zигагина xos bo'lgan taraqqiyot strategiyasiga bog'liq. Negaki, sog'liqni saqlash tizimini yakka o'zini taxlil qilganimizda ham, davlatlar rivojlanish darajasi bilan sohaga bo'lgan e'tiborni bog'liqligi topilmadi.

Xususan, rivojlangan Yaponiya mamlakatida sog'liqni saqlash sohasidagi davlat xaridlari jami xaridlarning 45 foizini tashkil qilsa, yana bir rivojlangan mamlakat Shveytsariyada bu ko'rsatkich 6,7 foizni ko'rsatmoqda. Yoxud, ijtimoiy sohada amalga oshirilgan davlat xarjatlari Yaponiyada 3,4 foiz, Sloveniyada 13,2 foizni tashkil qilgan. Bundan, davlat xaridlari tizimini takomillashtirish uchun sohalar bo'yicha xarajatlarning taqsimlanishida aynan bir rivojlangan mamlakat tajribasi tushunchasi qo'llanilmaydi, deyish mumkin.



2- rasm. Mamlakatlarda YAIM va jami davlat xarajatlariga nisbatan davlat xaridlari, 2007, 2019 va 2021 yillar³⁰

2-rasmida mamlakatlarda davlat xaridlarining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining muhim elementi sifatida YAIM ulushida va umumiy davlat xarajatlari ulushida o‘zgarishini ko‘rish mumkin. Unga ko‘ra iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti mamlakatlarida yalpi ichki mahsulot ulushi sifatida davlat xaridlari xarajatlari so‘nggi o‘n yil ichida sezilarli darajada, ya’ni 2007 yildagi YaIMning 11,8 foizidan 2021 yilda YaIMning 12,9 foizigacha oshdi. So‘nggi yillarda esa YaIMga nisbatan davlat xaridlari ulushining yanada ortishi kuzatilmogda.


IHTT va Evropa Ittifoqi mamlakatlarida davlat xaridlari 2019 yildagi YaIMning 13,7 foizidan 2021 yilda 14,8 foizgacha oshgan. Ushbu o‘sish, asosan, davlat investisiyalarini rag‘batlantiradigan, Evropaning tiklanish rejasining Markaziy qismi

³⁰ OECD (2023), Hukumat hisoboti 2023, OESD nashriyoti, Parij, <https://doi.org/10.1787/3d5c5d31-en>. 121-6

bo‘lgan tiklanish va chidamlilik fondi (RRF) tomonidan ta’minlanadi. YaIMdagi ulush sifatida davlat xaridlari xarajatlari Yaponiyada (16,6% dan 18,1% gacha) va Buyuk Britaniyada (13,1% dan 15,7% gacha) ham o‘sigan. Umuman mamlakatlarda davlat xaridlarni moliyalashtirish uchun davlat xarajatlarining 17 dan 48 foiziga ajratilganini va o‘sishini ko‘rish mumkin.

Biroq, bu borada istisnolar mavjud: masalan, Ruminiya, Litva, Gresiya va Ispaniya mamlakatlarda so‘nggi 15 yil ichida davlat xarajatlari tarkibida davlat xaridlari 10 foizdan ko‘proq kamaygan. Davlat xarajatlarining eng salmoqli 46,8 foiz ulushini Niderlandiya, 42 foiz Yaponiya, 41,5 foiz Koreya, 39,9 foiz Avstriya kabi mamlakatlarda davlat xaridlari egallaydi; eng kichik 21,0 foiz ulush Portugaliya, 20,7 foiz Gresiya, 17,5 foiz Meksikada kuzatilmoqda³¹.

2019 va 2021 yillar oralig‘ida IHTT mamlakatlarda davlat xaridlari jami davlat xarajatlarining ulushida 1,9 foiz punktga kamaydi. Buni COVID-19 pandemiyasi davrida joriy etilgan iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash choralarini tufayli xarajatlarining umumiy o‘sishi bilan izohlash mumkin. Qayta tiklash va barqarorlikni oshirish borasidagi chora-tadbirlar ya’ni, davlat xaridlari orqali yo‘naltirilgan davlat investisiyalariga qo‘sishma ravishda soliq imtiyozlari, grantlar va kredit kafolatlari ushbu tendentsiyani yanada mustahkamlashi mumkin.




3- rasm. 2021 yil yakuniga ko‘ra jahon mamlakatlarda davlat xaridlarning YAIM va davlat xarajatlaridagi ulushi³²

³¹ Muallif ishlanmasi

³² OECD (2023), Hukumat hisoboti 2023, OESD nashriyoti, Parij, <https://doi.org/10.1787/3d5c5d31-en>, ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

2021 yilda statistik ma'lumotlariga ko'ra aksariyat mamlakatlar davlat xaridlari ulushi davlat xarajatlarining katta qismini tashkil qilgan. Xususan, Yaponiya, Koreya, Isroil mamlakatlarida eng yuqori

35 foizdan ortiq ulushni ko'rsatmoqda. Ushbu mamlakatlarda davlat xaridlarining YaIMdag'i ulushi nisbatan o'rtachadan yuqorini tashkil qilgan.



4- rasm. Davlat xaridlari ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘rganilayotgan mamlakatlar segmenti³³


O‘zgaruvchilarga bog‘liq xatolik darajasini minimallashtirish uchun grafikda xaridlarining davlat xarajatlari va YaIMdagi ulushi bo‘yicha deyarli yaqin ma’lumotlar bo‘yicha kvadrantda ya’ni, davlat xarjatlaridagi ulushi 10-18 foiz, YaIMdagi ulushi 22-42 foizni tashkil qilgan mamlakatlar bo‘yicha korrelyasyon va regression tahlil qilindi.

Bu ikki o‘zgaruvchining o‘rtasidagi korrelyasiyon bog‘liqlikni tahlil qilganimizda, ko‘rsatkich 0,72 ga teng bo‘ldi:

	X	Y
X	1	
Y	0,720948041	1

Ya’ni, YaIMda davlat xaridlarining ulushi va jami davlat xarajatlaridagi davlat xaridlarining ulushi o’rtasida yuqori darajada bog‘liqlik bor va ular to‘g‘ri proporsional tarzda ortib borish yoki kamayish tavsifiga ega.

³³ OECD (2023), Hukumat hisoboti 2023, OESD nashriyoti, Parij, <https://doi.org/10.1787/3d5c5d31-en>. ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



5- rasm. YAIM va davlat xarajatlari tarkibida davlat xaridlari ulushining regressiyali taxlili echimi³⁴

Regression tahlil echimi chiziqli tenglama ko‘rininshida

$y = 1,57 x + 7,6091$ ko‘rinishga ega bo‘lib, bir qator omillar ya’ni Y-kesishma koefisienti qiymati 7,609129248 miqdorida boshqa omillar (davlat xarajatlarining umumiyligi miqdoridagi davlat xaridlari ulushiga qo‘shimcha ravishda) yakuniy natijaga ta’sir etishini asosli ravishda belgilaydi.

1-jadval.

Davlat xaridlari ko‘rsatkichlari qiymatlari bo‘yicha regressiya tahlili natijalari³⁵

ВЫВОД ИТОГОВ						
Регрессионная статистика						
Множественный R	0,720948041					
R-квадрат	0,519766078					
Нормированный R-квадрат	0,493086416					
Стандартная ошибка	3,617909691					
Наблюдения	20					
Дисперсионный анализ						
	df	SS	MS	F	Значимость F	
Регрессия	1	255,0016836	255,0016836	19,48173376	0,000335072	
Остаток	18	235,6068696	13,08927053			
Итого	19	490,6085531				
	Коэффициенты	стандартная ошибка	t-статистика	P-значение	Нижние 95%	верхние 95%
Y-пересечение	7,609129248	5,333721179	1,42660799	0,17080863	-3,596603133	18,81486
X	1,569981335	0,355697397	4,413811704	0,000335072	0,822688834	2,317274
					0,822688834	2,317274
					0,822688834	2,317274

Regression taxlil bo‘yicha o‘rganilayotgan mamlakatlarda ko‘rsatkichlar X o‘zgaruvchining Y ga ta’sirini 1,37 nisbatda bog‘liqligini ko‘rsatadi, bu esa davlat xaridlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi qanchalik yuqori bo‘lsa, ularning davlat xarajatlari tarkibida ulushining ham o‘sishi shunchalik yuqori bo‘lishi

³⁴ OECD (2023), Hukumat hisoboti 2023, OESD nashriyoti, Parij, <https://doi.org/10.1787/3d5c5d31-en>. ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi

³⁵ O’sha manba

haqidagi yuqorida korrelyasion tahlil ma'lumotini to'ldiradi.

Demak, jahon statistik ma'lumotlariga asoslangan tahlilimizga ko'ra davlat xaridlari mexanizmini tashkil qilishda davlat xaridlarining YAIM va davlat xarajatlaridagi ulushi muhim omil sifatida o'rganilishi va bu ko'rsatkichlar o'zaro bog'liq bo'lgani xolda davlat xaridlari yana bir qancha omillar ta'sirida o'sishini inobatga olish darkor. Bunda, sohalar bo'yicha xarajatlarning taqsimlanishida aynan bir rivojlangan mamlakat tajribasi tushunchasi qo'llanilmaydi. Xorijiy davlat amaliyotida, jumladan Amerika modelida dastur-qonun shaklida qabul qilingan. AQSh federal hukumati tomonidan shartnomalar asosida buyurtma qilingan va to'langan tadqiqotlar va ishlanmalarining ulushi tashqi pudratchilar tomonidan amalga oshiriladigan innovasion rivojlanish narxining 70 foizini tashkil etadi. Innovasion ishlanmalarining umumiyligi sonidagi shartnomalar soni taxminan 50 foizini tashkil qiladi. Ilmiy-tadqiqot va rivojlantirish bo'yicha shartnomalar AQSh federal hukumati tomonidan tuzilgan va bajarilgan barcha shartnomalarining umumiyligi qiyamatining taxminan 12 foizini tashkil etadi. Ushbu jarayonning asosiy vositasi - bu birinchi navbatda tovarlarni, ishlarni va xizmatlarni katta miqdorda sotib olishga yo'naltirilgan proqnoz rejalarini tayyorlash. Shu bilan birga, ayniqsa, yirik loyihalarni qiymati 2 million dollardan oshadigan loyihalarni o'z ichiga oladi.

III. XULOSA

Davlat xaridlarini amalga oshirishning xorijiy tajribasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, samarali davlat xaridlari tizimini shakllantirish uchun ochiqlik, raqobat muhitining ta'minlanishi va korrupsiyaga qarshi qat'iy choralarining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan davlatlarda davlat xaridlari samaradorligini oshirish uchun innovatsion yondashuvlardan, jumladan, raqamlashtirish, elektron tender platformalarini joriy etish va monitoring tizimlaridan foydalanilmoqda.

Ayniqsa, Yevropa Ittifoqi, AQSH va Yaponiya kabi rivojlangan davlatlarda davlat xaridlari shaffofligiga katta e'tibor qaratiladi. Masalan, Yevropa Ittifoqida davlat xaridlari "Single Market" (Yagona bozor) tamoyili asosida amalga oshirilib, barcha tender jarayonlari ochiq va raqobatbardosh muhitda o'tishi ta'minlanadi. AQShda esa "Federal Acquisition Regulation" (Federal xaridlar reglamenti) davlat mablag'laridan samarali foydalanishni kafolatlaydi. Yaponiyada davlat xaridlari tizimi innovatsion yondashuvlar, xususan, mahalliy va kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmi orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, davlat xaridlari tizimining shaffof va samarali bo'lishi mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, kichik va o'rta biznes subyektlarining davlat xaridlaridagi ishtiroki oshgan sari, mahalliy ishlab chiqarish hajmi ortib, yangi ish o'rnlari yaratiladi va tadbirkorlik muhiti yanada rivojlanadi. Davlat xaridlari tizimida raqamlashtirish va elektron platformalardan foydalanish esa inson omili ta'sirini kamaytirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston uchun xorijiy tajribani o'rganish va milliy davlat xaridlari tizimini takomillashtirish juda muhimdir. Ayni paytda O'zbekistonda davlat xaridlarini raqamlashtirish bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda, jumladan, elektron

tender va auksion tizimlari joriy etilgan. Lekin, davlat xaridlari jarayonini yanada samarali qilish uchun quyidagi chora-tadbirlarni ko‘rish tavsiya etiladi:

Shaffoflik va ochiqlikni oshirish – barcha tender jarayonlari haqidagi ma’lumotlarni ommaviy ravishda e’lon qilish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Raqamlashtirish va innovatsiyalarni joriy etish – barcha davlat xaridlari jarayonlarini elektron platforma orqali amalga oshirish va sun’iy intellekt hamda Big Data texnologiyalaridan foydalanish.

Korrupsiyaga qarshi kurashish – manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va noqonuniy sxemalarga qarshi qonunchilikni kuchaytirish.

Kichik va o‘rta biznesni qo’llab-quvvatlash – davlat xaridlarida mahalliy tadbirkorlik subyektlarining ulushini oshirish uchun imtiyozlar joriy etish.

Xalqaro tajribadan samarali foydalanish – rivojlangan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, O‘zbekiston davlat xaridlari tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish.

Shu tariqa, davlat xaridlari tizimini takomillashtirish nafaqat budget mablag‘laridan samarali foydalanish, balki mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga ham hissa qo‘sadi. Xorijiy tajribadan o‘rganilgan eng yaxshi amaliyotlarni milliy iqtisodiy modelga integratsiya qilish esa davlat boshqaruvining samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi.

IV. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 22 декабрдаги “Давлат харидлари тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ти Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2022. – №12. – Б. 7–10.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 14 мартаидаги “Давлат харидлари тўғрисида”ти Қарори // Конунчилик маълумотлари миллий базаси (lex.uz).

3. Ахмедов, У.Ж. Давлат харидларини ташкил этиш ва бошқариш: назария ва амалиёт / У.Ж. Ахмедов. — Тошкент: Иқтисод-Молия, 2022. — 240 б.

4. Каримов, А.А. Давлат молиявий назорати: назарий асослар ва амалиёт / А.А. Каримов. — Тошкент: Фан ва технологиялар, 2021. — 176 б.

5. Мансуров, Ш.Қ. Коррупция ва давлат харидларида шаффофлик / Ш.Қ. Мансуров. — Тошкент: Адолат, 2020. — 200 б.

6. OECD. Government at a Glance 2022: Public Procurement. — Paris: OECD Publishing, 2022. — 300 p.

7. Thai, K.V. International Handbook of Public Procurement / K.V. Thai. — Boca Raton: CRC Press, 2017. — 840 p.

8. Arrowsmith, S. The Law of Public and Utilities Procurement / S. Arrowsmith. — London: Sweet & Maxwell, 2018. — 1350 p.

9. World Bank. Public Procurement Review: Enhancing Transparency and Efficiency. — Washington, D.C.: World Bank Group, 2021. — 420 p.

10. Transparency International. Corruption in Public Procurement: Risks and Prevention Strategies. — Berlin: Transparency International, 2020. — 180 p.